XALQ DEPUTATLARI JOMBOY TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

2022 - yil 9 - aprel VI-54-63-7-94-K/22 Jomboy tumani hokimligi

Tumandagi 3 ta mahalla fuqarolar yig‘ini nomini qayta nomlash hamda tumanda mavjud bo‘lmagan ayrim mahalla fuqarolar yig‘ini nomlarini davlat reestridan chiqarish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Respublika toponimika xizmatining 2022-yil 8-fevraldagi 01-14-127-sonli ekspert xulosasi, 1-chorak hisoboti O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni 4-, 6-, va 9-moddalari maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashining VI–chaqiriq LIV-sessiyasi

QAROR QILADI:

1.O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Respublika toponimika xizmatining 2022-yil 8-fevraldagi 01-14-127-sonli ekspertiza xulosasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2.Tumandagi 3 ta mahallaning nomini *(viloyat hokimining 2016-yil 29-iyuldagi 02/02-1276-sonli xatiga asosan)* yangi nomga, ya’ni Taldirozzoq-Hurriyatga, Nogahon-Navbahorga va Qo‘lbosti-Mehnatobodga o‘zgartirish taklifi xalq deputatlari Jomboy tumani Kengashi tomonidan ko‘rib chiqilib, shu hududdan saylangan deputatlar va aholining taklifiga asosan avvalgi, ya’ni “Taldirozzoq”, “Nogahon” va “Qo‘lbosti” nomida qoldirilishi inobatga olinsin va tasdiqlansin.

3.Tuman hokimining maslahatchisi (A.Qurbonov) Davlat reestrda mavjud 39 ta mahallalardan 2 tasi, ya’ni tumanda mavjud bo‘lmagan “Obodturmush” va “Yangihayot” mahallalarini davlat reestdan chiqarish hamda tumanda mavjud bo‘lgan “Ahmadjon Qurbonov” mahallasini davlat reesrtiga kiritish choralarini ko‘rsin.

4.Tuman hokimligi axborot xizmati (O.Odilov), “Jomboy tongi” gazetasi

(I.Po‘latov) mazkur qarorni o‘rnatilgan tartibda e’lon qilinishini hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

5.Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining sanoat, transport, qurilish, aloqa, kommunal xo‘jaligi masalalari va aholiga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha doimiy komissiyasi (N.Mamatqulov), tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi A.Qurbonov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **Q.Sobirov**